



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

bo'lgan motivatsiyasini saqlashda, muloqotda va jamoada ishlashda samaraliroq bo'ladi. Ular murakkab vazifalarga nisbatan ijobiy yondashadi va muvaffaqiyatsizliklardan keyin o'zini tez tiklay oladi. EI past bo'lgan o'quvchilar esa kuchli raqobat muhitida qiynalishi, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarolmasligi mumkin.

Xulosa. Ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarida emotsional intellektning shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo'lib, ko'plab omillar bilan belgilanadi. O'quv muhiti, yuqori akademik talablar, raqobat muhiti, jamoaviy loyihalar, pedagogik yondashuv va oilaviy qo'llab-quvvatlash EI rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori EI o'quvchilar stressni boshqarishda, motivatsiyani saqlashda, jamoaviy ishlarda va murakkab vazifalarni bajarishda samarali bo'lib, muvaffaqiyatga erishadi. Shu sababli ixtisoslashtirilgan maktablarda EI rivojini sistematik va uzluksiz qo'llab-quvvatlash, pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bar-On R. The Emotional Quotient Inventory (EQ-i): A test of emotional intelligence. Toronto: Multi-Health Systems; 1997.
2. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books; 1995.
3. Mayer JD, Salovey P. What is emotional intelligence? In: Salovey P, Sluyter D, editors. Emotional development and emotional intelligence. New York: Basic Books; 1997. p. 3–31.
4. Petrides KV, Furnham A. Trait emotional intelligence: psychometric investigation with reference to established trait taxonomies. Eur J Pers. 2001;15(6):425–48.
5. Saarni C. The development of emotional competence. New York: Guilford Press; 1999.
6. Stein SJ, Book HE. The EQ Edge: Emotional Intelligence and Your Success. Toronto: Stoddart; 2000.
7. Yo'ldosheva D. O'quvchilarda emotsional rivojlanishning psixologik asoslari. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti; 2019.
8. Zokirova N, Karimova V. Yoshlar psixologiyasi. Tashkent: Fan; 2016.

O'SPIRINLIK DAVRIDA KASB TANLASH YETAKCHI FAOLIYAT SIFATIDA

Normurodova Mashhura Nurilla qizi

O'ZMU Jizzax filiali 2-bosqich magistranti
mashhuranormurodova36@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'spirinlik davrida yoshlarning kasb tanlash faoliyati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Kasb tanlashdagi motivatsiya sohasi ham batafsil tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, tanlov, ilk o'spirinlik, layoqat, kasbiy tayyorgarlik, qadriyatlar, maslahat modeli.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о деятельности молодых людей в процессе выбора профессии в подростковом возрасте. Также подробно анализируется область мотивации при выборе профессии.

Ключевые слова: выбор профессии, выбор, ранний подростковый возраст, компетентность, профессиональная подготовка, ценности, модель консультирования.

Annotation: This article provides detailed information about the career choice activities of young people during adolescence. The area of motivation in career choice is also analyzed in detail.

Keywords: career choice, choice, early adolescence, competence, professional preparation, values, counseling model.

Kirish. Bugungi axborotlashgan davrda shaxs sifatida shakllanish, jamiyatda o'z o'rnini toppish davlat rivojiga hissasini qo'shish uchun munosib kasb tanlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shaxslar o'z qobiliyatlariga to'g'ri yondoshgan holda kasb tanlash ularning eng katta yutug'idir. Shuningdek, munosib kasbni tanlashning muhim va hal qiluvchi bosqichlaridan biri o'spirinlik davriga to'g'ri kelib, ushbu davrda tanlagan kasbi shaxsning butun hayot yo'lini belgilab beradi.

O'spirinlik davri ijtimoiy jihatdan yetilish, mustaqil shaxs sifatida hayotda faol ishtirok etish, o'z taqdirini o'zi hal qilish davri hisoblanib, ijtimoiy hayotda faol harakat qilish, yangi bilimlarni egallash hamda o'z qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish o'spirinlarning asosiy maqsadiga aylanadi. O'spirinlik davrida hayotiy istiqbol rejalarini tuzish, kelajakka yo'nalganlik hayotining asosiy mazmuniga aylanadi. Ilk o'spirinlik davrida mustaqil hayotga qadam qo'yish taraqqiyot bosqichi boshlanishining muhim funksiyasidir. Ilk o'spirinlik davrida kasbiy o'z – o'zini belgilash jarayoni tugallanib, katta o'spirinlik davriga o'tishga qadar o'z – o'zini namoyon qilish amalga oshadi. Bu davrda yoshlar mehnat faoliyatining istiqbollari aniq belgilab olishga, o'zlarining kelajakdagi ixtisoslikdagi yo'nalishlarini tanlashga intilish kuchli bo'ladi [1].

Xorijiy va mahalliy psixologik adabiyotlarni tahlil qilish "kasb tanlash" hodisasining mohiyatini batafsilroq tushunishga imkon beradi:

- kasb tanlash - bu kasbiy rivojlanishning bir bosqichini ifodalovchi jarayon bo'lib, u shaxsning nisbatan yaxlit shaxs sifatidagi o'zini-o'zi anglashga asoslanadi, shaxs ulg'aygan sari doimo o'zgarib turadi» (D.Super);

- tanlov shunchaki har qanday qadriyatning intellektual tanlovi emas, balki "o'ylash", uyg'otuvchi xulq-atvor sifatida, uning yordamida inson izlanish orqali o'zi bo'lishni xohlagan tomon harakat qiladi (K. Rojers);

- tanlov insonning ma'noga bo'lgan istagini, hayotning ma'lum bir daqiqasida inson hayotining asosiy kuchi sifatida o'ziga xos ma'nosini ifodalaydi (V. Frankl);

- kasbiy tanlov bir martalik harakat emas, balki bir qancha harakatlar va qarorlardan iborat jarayondir. Uzoq vaqtlik mehnat davomida ko'plab tanlovlar muqarrar, ya'ni kasb tanlash bir martalik ish emas [5].

Kasbiy sohada to'g'ri tanlov jarayoni va natijasi o'spirinlar uchun o'zini yanada optimallashtirishga, o'zini namoyon qilishga, hayotda o'zini yaxshilashga imkon beradi, kundalik tajribani o'zlashtirishga hissa qo'shadi, bu unga kundalik hayotda muvaffaqiyatli harakat qilish imkoniyatini beradi, tanlov esa o'z tanlovi uchun mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilishni nazarda tutadi. Ko'rinib turibdiki, kasb tanlash masalasini ko'rib chiqayotganda, olimlar talabalarining kelajakdagi kasbiy taqdirini mas'uliyat bilan va mustaqil ravishda belgilashga tayyor bo'lishlari muhimligiga e'tibor qaratadilar [6].

Kasb tanlash ilk o'spirindan ikki xil ma'lumotni talab qiladi: kasb dunyosi va har bir kasbga qo'yiladigan talablardan xabardorlik; o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini bilish. U ma'lumot ham bu ma'lumot ham ilk o'spirinlarga yetishmaydi. Ilk o'spirinlarning hayotiy rejalarini amalga oshirish va kasb tanlashi ijtimoiy sharoitlarga, ayniqsa ota-onaning umumta'lim darajasiga bog'liq. Ota-onaning ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, farzandlarining oliy-o'quv yurtida o'qishni davom ettirishi va bu rejalarini amalga oshirish ehtimoli shunchalik yuqoridir. Kasb tanlashdagi muhim omillardan biri o'z jismoniy salohiyatini hisobga olgan holda tanlash hisoblanadi. Bunday holda e'tibor berish kerak bo'lgan jihat shundaki, jismoniy tuzilish xususiyatiga ko'ra, ya'ni yigit va qizlar individual xususiyatiga ko'ra kasb tanlash Hayotiy rejalarini amalga oshirish ehtimoli yigitlarda qizlarga nisbatan yuqoridir [2].

Ilk o'spirinlik yoshi - mehnat hayotida o'zini o'zi aniqlab olish davri bo'lib bu vaqtda o'quvchi o'zining mehnatdagi iste'dodini jiddiy ravishda izlay boshlaydi, unda o'zining kelajagini belgilab olishga intilish paydo bo'ladi. Kasbiy maqsadlarning barqarorligini o'rganish masalasida I.Krilov tomonidan o'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, Oliy ta'limga kirgan talabalar orasida ko'plari o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab yoshlarning mazkur Oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasvurlari bilan bu kasbning haqiqiy amaldagi mazmuni bir-biriga nomutanosibligidir. Mehnat jarayonida o'quvchilarda yangi tuyg'ular -o'z mehnatidan quvonish, yaratilgan narsa bilan faxrlanish tuyg'usi ko'p kuch-g'ayrat sarflaganidan keyin erishilgan g'alabadan qanoat hosil qilish tuyg'usi paydo bo'ladi. Kasb tanlash nimaning ta'sirida vujudga keladi? Kasb tanlashning motivi nimada? kabi savollarga bir qancha tadqiqotlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda so'rab chiqilgan o'quvchilarning 40-50% kelajakdagi kasbni tanlashga biror o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishlariga sabab bo'lgani aniqlangan [3].

Ilk o'spirin uchun kasb tanlash avvalo axloqiy muammodir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham shaxs mehnat qilish huquqi bilan birga, o'z qobiliyati, layoqati va qiziqishiga ko'ra kasb tanlash huquqiga egaligi ta'kidlangan.

Kasb tanlashdagi 6ta xato

1. Atrofdagilar bosimiga bo'ysunish - insonlar ko'pincha ota - onalari, do'stlari yoki jamiyat ta'sirida, o'z qiziqishlari va moyilliklarini o'ylamay, kasb tanlashadi.
2. Qiziqish va qobiliyatlariga e'tibor bermaslik - ko'pchilik o'z iste'dodi va qiziqishlarini hisobga olmagan holda obro'li yoki yuqori maoshli kasbni tanlaydilar, bu esa norozilikka olib keladi.

3. Faqat oylik maoshga e'tibor qaratish - yuqori maosh bo'lishi mumkin, lekin ish qiziqarli bo'lmasa tezda emotsional yonish va umidsizlikka tushishi mumkin.

4. Kasbning kelajakdagi rivojlanishi - ba'zi kasblar avtomatlashtirish yoki mehnat bozoridagi o'zgarishlar tufayli yo'q bo'lib ketishi yoki ahamiyatsiz bo'lib qolishi mumkin.

5. O'z imkoniyatlarini past baholash - ko'p odamlar o'zlariga ishonmaydilar va kamroq tashabbu qiladigan yo'llarni tanlaydilar, shaxsiy va professional o'sish imkoniyatlarini qo'ldan boy berishadi.

6. Axborot yetishmasligi - tanlangan kasb, uning mas'uliyati, mehnat sharoitlari va talablarini to'liq tushunmaslik umidsizlikka va martaba o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

U.S. Jumayevning fikriga ko'ra, bugungi kunga kelib, shaxsni kasb tanlashga yo'naltirish muammosiga o'ziga xos ijtimoiy-psixologik tamoyillar asosida yondashish tendensiyasi ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, olimlar tomonidan «kasbga yo'naltirish uchburchagi» tavsiya etilgan va uning birinchi tomoni – turli kasblarning insonga qo'yadigan talablarini puxta bilishdir. Ikkinchi tomoni – ijtimoiy kutilmaning mehnat bozorini, jamiyat (tor ma'noda – hudud)ning u yoki bu mutaxassisga nisbatan ehtiyojini o'rganishdir... Kasbga yo'naltirishning uchinchi tomoni va bunga oid barcha ishlarning asosi shaxs xususiyatlarini, eng avvalo, kasbga yo'naltirilayotgan insonning qobiliyati va istagini oilaviy muhit sharoitida aniqlashni o'z ichiga oladi[4]. Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik holati dinamik tuzilishga ega bo'lgan, tarkibiy qismlari o'rtasida funktsional bog'liqliklar mavjud bo'lgan shaxsning murakkab, maqsadli namoyon bo'lishi sifatida tushunilishi kerak. Kasbiy tayyorgarlik - bu kasbiy tayyorgarlik natijasi, shaxsiyat sifati va kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini tartibga soluvchi, munosabat turi sifatida ishlaydi. S.I.Vershinin kasbiy tanlovni nafaqat ta'lim muassasasi bitiruvchisining ma'lum bir kasbni tanlashi, balki insonning kasbiy faoliyatiga, shu jumladan kasbiy faoliyatga o'qitishga har qanday muqobil variantni tanlash sifatida ham tushunadi [7].

Shunday qilib, muvaffaqiyatli kasbiy tanlov insonga o'zining jismoniy, aqliy va ma'naviy kuchlarini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi, unga hayotda o'z o'rnini topishga va o'z tanlovi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga yordam beradi. Muvaffaqiyatli tanlov shaxsiy yetuklik ko'rsatkichidir.

Frank Parsons (1854–1908) — kasbiy yo'naltirish (career guidance) sohasining asoschilaridan biri hisoblanadi. U zamonaviy kasbiy maslahat va yo'naltirish tizimining poydevorini qo'ygan. Parsons ko'pincha “Kasbiy yo'naltirishning otasi” deb ataladi.

Uning asosiy yutuqlari:

1. Xususiyat va omil nazariyasi:

Parsons kasb tanlashni ilmiy yondashuv asosida amalga oshirish mumkin deb hisoblagan. U quyidagi uchta asosiy bosqichni taklif qilgan:

1. Shaxsni bilish – kishining qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlar va shaxsiy sifatlarini aniqlash.

2. Kasblarni bilish – kasblar haqida to'liq, real va aniq ma'lumotga ega bo'lish (talablari, ish sharoitlari, imkoniyatlar).

3. Moslikni topish – shaxsiy xususiyatlar bilan kasb talablarining mos tushishini aniqlash.

2. "Choosing a Vocation" (1909): Parsons vafotidan so‘ng nashr etilgan bu asari kasbiy yo‘naltirish sohasidagi ilk asosli qo‘llanmalardan biridir. Unda yuqoridagi uch bosqichli model tafsilotlari bayon qilingan.

3. Boston Vocation Bureau: 1908 yilda Bostonda birinchi kasbiy yo‘naltirish byurosini tashkil etgan. Bu markaz yoshlar va ish izlovchilarga kasb tanlashda yordam bergan.

Xulosa: Frank Parsons kasbiy yo‘naltirishni faqat "maslahat" emas, balki shaxsiy tahlil va ilmiy metodlar asosidagi tizimli jarayon sifatida ko‘rgan. Uning ishlari hozirgi kunda ham ko‘plab kasbiy testlar va maslahat modellarining asosida yotadi.

O‘spirinlarda kasbiy qiziqishlarni aniqlashga bag‘ishlangan metodikaning bajarilish tartibi shundan iboratki, tajriba materialida berilgan kasbiy faoliyatga oid savollarni o‘z qiziqish darajasidan kelib chiqib baholashadi, buning uchun 4 ball qiziqish darajasi kuchliligiga, 1 ball esa umuman qiziqarli emasligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nishanova Z.T, Kamilova N.G, Abdullayeva D.U, Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent:darslik/ “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. 370-bet.

2. Ne‘matov F.Begmat o‘g‘li “O‘spirinlik davrida kasb tanlash muammolari” (maqola) <https://doi.org/10.5281/zenodo.7940145>

3. Do‘stmuxammadova X. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv kasbiy faoliyatining yekakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi (maqola) [jild: 4nashr: 2(2025)] issn:2992-8915

4. Жумаев У.С. Ўсмирларда касб танлашга муносабат тизими шаклланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: психол. фан. ном. дис. автореферати. – Т., 2004. – 8-бет.

5. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. М., 2004. С. 304.

6. Абдалиева Л.В. Психологические аспекты профессионального самоопределения. Воронеж, 2004. С. 77.

7. Елена Владимировна Груздова Воронежский экономико-правовой институт, г. Воронеж, Россия, аспирант кафедры психологии и естественнонаучных дисциплин; средняя общеобразовательная школа № 34 с углубленным изучением отдельных предметов, педагог-психолог, е-шай: kombinir@mail.ru

OILA TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI HAQIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

Ps.f.b.f.d (PhD), dotsent Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
E-mail - umidaibaydullayeva@gmail.ru